

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Boyqo'zieva	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari	230
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini axborotlashgan ta'lim muhitida takomillashtirish	234
G.Z.Ganiyeva	
Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (buyuk britaniya va amerika joy nomlari lug'atlari misolida)	238
Z.K.Abidova	
Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish	244
R.I.Madaliyev	
Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi	248
M.X.Baybaeva, I.A.Imomov	
Talabalarning xulq atvoridagi nizoli vaziyatlarni pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmasining talqini	252
I.A.Imomov	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili	256
L.M.Sokolova	
Farg'ona vodiysi hunarmandlari postindustrial dunyoda	261
S.O'Boybo'riyeva	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari	268
Sh.X.Xankeldiyev, D.K.Karimov	
Yosh akrobatlarning xarakter-texnik tayyorgarligi metodologiyasining kumulyativ samaradorligini o'rganish	272

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari	277

FALSAFA

Z.A.Boboyeva	
San'atning badiiy adabiyot turi uzluksiz ma'naviy tarbiyaning muhim omili	283
I.A.Xo'jaxonov	
Huquqiy targ'ibot jarayonida ommaviy axborot vositalarining o'rni	288
U.M.Mamajonov	
Musiq madaniyati darslarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari	293
M.B.Yuldasheva	
Biolog talabalarni kasbga yo'naltirilgan yondashuv orqali til o'qitish bo'yicha taklif	298
B.M.Qandov	
Global ekologik muammolar: shaxs dunyoqarashi va milliy qadriyatlari tizimidagi o'zgarishlar	302
O.T.Berkinov	
Kibermakonda mavjud o'ziga xos tahdidlar	308
I.Ismoilov	
Jinoyatga jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	311
A.A.Sayitxonov	
Milliy qadriyatlar– ma'naviy tarbiyaning mafkuraviy asosi	316
Z.O.Muminova	
Tafakkur tarzi va jamiyat mafkuraviy tizimining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri	320
A.A.Isomiddinov	
Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari	324

**BO'LAJAK TEKNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI METODIK KOMPETENTLIGINI
AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA TAKOMILLASHTIRISH****ПОВЫШЕНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ
СРЕДЕ****IMPROVING THE METHODOLOGICAL COMPETENCY OF FUTURE TECHNOLOGICAL
EDUCATION TEACHERS IN AN INFORMED LEARNING ENVIRONMENT****Nosirov Nodirbek Valijonovich¹****¹Nosirov Nodirbek Valijonovich**– Farg'ona tibbiyot instituti xalq salomatligi
o'qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligining axborotlashgan ta'lim muhitidagi tizimli yo'nalishlariga to'xtalgan. Har bir o'sibkelayotgan yosh avlodning buguni zamon talablariga to'la qonli javob berishlari uchun axborot kommunikatsiyasining o'rni beqiyosdir. Shuni hisobga olgan holda axbotot ta'lim muhitidagi yirim jihatlarga alohida e'tibor berilgan. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligi uchun kerakli tavsiya va ko'rsatmalar keltirib o'tilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена системным направлениям методологической компетентности будущих педагогов технологического образования в информационно-образовательной среде. Место информационного общения несравнимо для того, чтобы каждое подрастающее молодое поколение в полной мере отвечало требованиям времени. Учитывая это, особое внимание было уделено некоторым аспектам образовательной среды. Даны необходимые рекомендации и указания по методической грамотности будущих учителей технологического образования.

Abstract

This article focuses on the systematic directions of methodological competence of future technological education teachers in the informational educational environment. The place of information communication is incomparable for each growing young generation to fully respond to the demands of the time. Taking this into account, special attention was paid to some aspects of the educational environment. Necessary recommendations and instructions for the methodical competence of future teachers of technological education have been given.

Kalit so'zlar: *Axborotlashgan ta'lim, metodika, metodik kompetentlik, pedagogika, kasbiy mahorat, malaka.*

Ключевые слова: *Информационное образование, методология, методологическая компетентность, педагогика, профессиональное мастерство, квалификация.*

Key words: *Informed education, methodology, methodological competence, pedagogy, professional skill, qualification.*

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohatlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb – hunar sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Zamon talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, jumladan, oliy ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi o'n yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Insonga e'tibor va

PEDAGOGIKA

sifatli ta'lim" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq yettita ustuvor yo'nalishlarda quyidagi yo'nalishlar ham asosiy o'rin egallab turibdi:

- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish [1-2].

Shulardan kelib chiqqan holda har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va salohiyatli shaxs bo'lib yetishishlari uchun nafaqat tarbiyachi ustozlar balki barchamiz mas'ulmiz desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz kutgan natijaga erishish uchun bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi ustozlar o'zlarining bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib, mustahkamlab, ularni rivojlantirib, o'z ustilarida ko'proq shug'ullanishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. XXI asr axborot texnologiyalari asri bo'lib, har bir yosh avlod kelajagi va ertangi kuni uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot kommunikatsiyalarining rivojlanishi butun dunyo bo'ylab taraqqiy etib bormoqda. Kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini oliy ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'siri ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sohasida, o'quv faoliyatida va bo'lajak o'qituvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Axborot texnologiyalari ta'limni amalga oshirish jarayonida hayot bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi.

O'qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. Yillar davomida to'plangan ilm-fan xazinasini bugungi yosh kelajak avlodga o'rgatish, ularni dunyodagi ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiya va axborot tizimlari yordamida jahon standartlariga to'g'ri keladigan yetuk mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash bugungi davrning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Hozirgi kunning muhim talablaridan yana biri, o'quv jarayonini to'liq kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda olib borishdir [3].

Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohotlarni respublika pedagoglari ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan mustahkamlashlari zarur. Buning uchun pedagoglarimizni o'quv jarayoniga texnologik yondashuvlarini o'rgatish talab etiladi, bu esa pedagogik texnologiyalardan foydalanishdan tashqari uni O'zbekiston madaniyati, an'analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Fanni o'qitish uchun eng mos keladigan ta'lim texnologiyasini qo'llashdan iborat. Shuningdek, yanada samarali o'qitish uchun boshqa texnologiyalarning elementlari, masalan, o'yin texnologiyasi va guruhli o'qitish texnologiyasi pedagogik jarayonga kiritilishi kerak. Ushbu fanni muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalarning reproduktiv faolligini ularning mustaqil izlash faoliyatini faollashtirish, fazoviy fikrlash, ijodiy kasbiy fikrlashni rivojlantirish bilan birlashtirish zarur. O'qitish jarayonida ko'plab tadqiqotchilar, o'zbek olimlari izlanishlar olib bormoqda, ushbu izlanishlar asosan ta'lim jarayonining ijtimoiy ehtiyojlarini o'rganishga va oshirishga qaratilgan bo'lib bo'lajak, o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtiradi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi endi nafaqat o'zining funksional majburiyatlarini yaxshi bajarishi, shuningdek turli jarayonlarni loyihalay olishi, yechimlar qabul qilishi va ijodiy ishlarni bajara olishi kerak. Texnologiya fani mashg'ulotlarida ham ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lgan axborotlashgan ta'limni qo'llash bo'yicha real ehtiyoj mavjud-ki, bu esa tizimda multimedia vositalarini joriy qilish bo'yicha to'xtovsiz ishlashni talab qiladi. Chunki multimedia ta'lim va tarbiya oluvchilarga axborotning noan'anaviy manbalariga, yangi shakllariga va o'qitish metodlariga yo'l ochib beradi. Multimedia dasturlarida axborot uchta vosita – grafika, audio va video yordamida uzatiladi. Kompyuter grafikasi yordamida shakl tuzilmasining estetik qonunlarini maksimal amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu ko'rgazmalilik o'zida tasvirlanadigan obyektning real dunyo bilan almashtirish elementlarini birlashtiradi. Ko'rgazmalilikning bunday kategoriyasi o'zining mental ko'rinishli tasvirni sxematikligi va shifrlanganligi bilan tasniflanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligi takomillashtirish oliy o'quv yurtida kasbiy ta'lim olish jarayonida boshlanadi. Oliy o'quv yurtlarining o'quv-reja va fanlar bo'yicha

dasturlarida bo'lajak o'qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlar berish, o'qituvchilik kasbi haqida ma'lumot berish va ko'nikma hosil qilish nazarda tutiladi [4].

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirib qolmasdan, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi. Yurtimizda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko'tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir.

Bo'lajak **texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini** takomillashtirish uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga e'tibor qaratish lozim. Pedagogik faoliyat va muloqot jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetensiyaga ega bo'lib borish uchun mutaxassis o'zida insonparvarlik, ijtimoiy-refleksiv, bilim hamda ko'nikmalar, ijodiy kasbiy "Men"- siyosati, ba'zi shaxsga xos sifatlar (intellekt, iroda, empatiya, kuzatuvchanlik, mehribonlik, hissiy bag'rikenglik va boshqalar)ni shakllantirishga oid mashg'ulotlar bilan shug'ullinishi maqsadga muvofiqdir [5].

Axborotlashgan ta'lim muhitida bo'lajak **texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini** takomillashtirish uchun avvalambor ularning kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalana olishlik darajalarini tekshirib ko'rish va shunga mos tarzda ularga tushunchalar berish lozim. O'tiladigan har bir fanga ko'rgazmali qurollardan foydalanish, elektron doskalar hamda fanga oid qiziqarli materiallardan foydalanish albatta kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

Bo'lajak **texnologik ta'lim o'qituvchilarini** yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun tarbiyachi pedagogning ham bilim, ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning ma'lum sifatleri amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishdagi ko'p yoqlik bo'lishi, bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqozo qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Pedagogik mahoratni egallashda kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallash pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo'lish ijobiy natijalar beradi. Albatta bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlar bilan taqqoslab, ularni to'g'ri va haqqoniylikiga ishonch hosil qilib, o'ziga bo'lgan ishonchni yanada orttirib, mavjud bilimlarni boyitish, xato va kamchiliklarni to'g'rilash va sayoz bilimlar ustida ko'proq shug'ullanish imkoniyatini yaratib beradi. "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmogi lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchilardan hech qanday natija kutib bo'lmaydi" [6].

Jahondagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlantirish bo'yicha yetakchilik qilib kelayotgan davlatlarning pedagogik tajribalariga asosan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish hamda ta'limning sifat darajasini yangi bosqichga ko'tarishda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilik ta'lim yo'nalishi talabalarini xalqaro standartlar darajasidagi mutaxassislik faoliyatiga tayyorlashda elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish orqali mehnat bozori talablariga muvofiq pedagogik kasbiy kompetensiyasini shakllantirish zaruratini taqazo qiladi [7].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida multimediali darslardan foydalanib amalga oshirilganda, bo'lajak o'qituvchidan muayyan malakaviy talablarni bajarish lozim bo'ladi. Natijada o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi rivojlanadi, salohiyati va pedagogik mahorati ortadi, o'qituvchining bilim darajasi va mashg'ulot sifati yanada yuqori darajaga ko'tariladi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda va boshqarish, ta'lim mazmunini davriy ravishda yangilab borishga imkoniyat yaratadi [10-14]. Shu bois bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida muayyan sifatlarga egalikni baholovchi mezonlarni asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni.
Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 No. PF-60 "On the new development strategy of Uzbekistan for 2022-2026".
2. Sh.M.Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis Palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi -Toshkent: O'zbekiston, 2016-yil. (Sh.M. Mirziyoyev. "Free and prosperous, democratic country of Uzbekistan together we will build." Speech at the joint session of the Chambers of the Oliy Majlis dedicated to the inauguration ceremony of the President of the Republic of Uzbekistan - Tashkent: "Uzbekistan", 2016.)
3. O.A.Qo'ysinov Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019-yil 47-bet. (O.A. Koysynov "Technologies for the development of professional pedagogical creativity of future teachers based on a competent approach": Doctorate in Pedagogical Sciences (DSc) diss. - Tashkent, page 47 of 2019.)
4. M.K.Shomirzayev Combined In Technology Courses Use Of Technologies //The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2021. – T. №. 05. – P. 389- 396 betlar. (M.K. Shomirzayev Combined In Technology Courses Use Of Technologies //The American Journal of Social Science and Educational Innovations. 2021. - T. no. 05. – P. 389-396 pages.)
5. B.E.Qodirov Elektron axborot ta'lim muhitida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi: Diss. p.f.f.d. (PhD) – Termiz: 2021-yil 142-bet. (B.E. Kadirov "Methodology of development of basic skills of students in the electronic information education environment": Diss. p.f.f.d. (PhD) – Termiz: 2021 page 142.)
6. U.Sh. Begimkulov Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy nazariy asoslari. - T: Fan 2007-yil 157-bet. (U.S. Begimkulov Scientific theoretical foundations of introduction of modern information technologies in pedagogical education. - T:Fan 2007 page 157.)
7. M.M. Axmedov, G.T. Xojikarimova, G.M. Safarova. Pedagogical skill is the product of the individual characteristics of the teacher Vol. 7 No. 02 (2021): JOURNALNX s. –R. 237-240. (M.M. Akhmedov, G.T. Khojkarimova, G.M. Safarova. Pedagogical skill is the product of the individual characteristics of the teacher Vol. 7 No. 02 (2021): JOURNALNX p. -R. 237-240.)
8. M.M.Axmedov, G.T. Xojikarimova, G.M. Safarova The american journal of applied sciences// SJIF-5.634 DOI-10.37547/tajas.Vol.3. Issue01, 2021 s. R. 54-57. (M.M. Akhmedov, G.T. Khojkarimova, G.M. Safarova The American journal of applied sciences// SJIF-5.634 DOI-10.37547/tajas.Vol.3. Issue01, 2021 p. R. 54-57.)
9. N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, SH.Abduraxmonov, Q.M.Abdullaeva, N.S. Gaipova. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. Metodik qo'llanma. – T.: 2014 yil. 90-95-betlar. (N.A. Muslimov, O.A. Koysinov, SH. Abdurakhmanov, Q.M. Abdullaeva, N.S. Gaipova, Technologies of formation of methodical competence of future vocational education teachers. Methodical manual. - T.: 2014. Pages 90-95.)
10. A.R.Jo'raev. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda dasturlashtirilgan ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari. Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari. Elektron jurnal. – Urganch. 2019-yil 1-son. 120-125-betlar. (A.R. Joraev., "Didactic possibilities of using programmed educational tools in the training of future technology teachers". Actual problems of modern science, education and upbringing. Electronic magazine. - Urganch. Issue 1 of 2019. Pages 120-125.)
11. N.V.Nosirov Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 O'zbekiston 4-son 82-85-betlar. 2022-yil. (N.V. Nosirov "The importance of using pedagogical and psychological factors in the training of future technological education teachers" Central Asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 Uzbekistan No. 4, pp. 82-85. 2022 year.)
12. N.V.Nosirov Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini metodik kompetentligini rivojlantirish mezonlari Criteria for the Development of Methodological Competence of Future Teachers of Technology" International Journal on Integrated Education. Research parks publishing Indonesia. In Vol.6 No r (2023). (N.V. Nosirov Criteria for the Development of Methodological Competence of Future Teachers of Technology Criteria for the Development of Methodological Competence of Future Teachers of Technology International Journal on Integrated Education. Research Parks Publishing Indonesia. In Vol. 6 No. r (2023).)
13. N.V.Nosirov Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kasbiy va metodik kompetentlikni shakllantirishda integratsion jarayondan foydalanish. Mug'allem hem uzluksiz bilimlendio' "Ilmiy jurnali. Nukus. №5/2. 2022-yil.129-134-betlar. (N.V.Nosirov "Using the integration process in the formation of professional and methodical competence of future technology teachers". "Teacher and continuous education" Scientific magazine. Defect. No. 5/2. 2022. Pages 129-134.)
14. N.V.Nosirov. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini metodik kompetentligini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari. "NamDU ilmiy xabarlari" Ilmiy jurnali. Namangan 11-son. 2022-yil 636-641-betlar. (N.V.Nosirov "Pedagogical and psychological foundations of improving the methodological competence of future technology teachers". "Scientific news of NamSU" scientific magazine. Namangan No. 11. 2022 pp. 636-641.)
15. N.V.Nosirov Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari "FarDU ilmiy xabarlar" Ilmiy jurnali. 2023-yil 1-son 574-577-betlar. (N.V. Nosirov "Pedagogical conditions for improving the process of developing methodical competence of future technology teachers". "FarDU scientific news" scientific journal. Issue 1, 2023, pp. 574-577.)